

**NOMUTAXASSIS TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING OLIY
МАТЕМАТИКА ФАНИ ВО'YICHA MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH
XUSUSIYATLARI.**

Pardaboyeva S.I. (JDPU, talabasi)

(JDPU, talabasi e-mail:
saodatpardaboyeva04@gmail.com)

Annotation. Respublikamizda 2020 – 2021 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lismuassasalarida kredit – modul tizimi joriy etilishi boshlandi. Ushbu tizimning afzalligi shundaki talabalarning mustaqil ta'limga alovida soatlar ajratilgan bo'lib, ulardan ta'limg olishga jiddiy va ongli yondoshishni talab etadi. Kredit - modul tizimida talabalarning mustaqil ta'lmini tashkil etish muxim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada kredit-modul tizimida pedagogik oliy ta'limg muassasalari nomuyaxassis ta'limg yo'nalishlari talabalrining oliy matematika bo'yicha mustaqil ishini tashkil etish xususiyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kredit – modul tizimi, mustaqil ish, matematik tayyorgarlik, mateamatik apparat, matematik madaniyat,

**ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ
ПО ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКЕ СТУДЕНТОВ НЕСПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ.**

Пардабойева С.И. (студентъ ДжГПУ)

Аннотация. В стране с 2020-2021 учебного года началось внедрение кредитно-модульной системы в высших учебных заведениях. Преимущество этой системы в том, что для самостоятельного обучения студентов выделяются отдельные часы, что требует от них серьезного и осознанного подхода к обучению. Важно организовать самостоятельное обучение студентов по кредитно-модульной системе. В статье исследуются особенности организации самостоятельной работы по высшей математике студентов-гуманитариев педагогических вузов в кредитно-модульной системе.

Ключевые слова: кредитно - модульная система, самостоятельная работа, математический аппарат, математическая культура.

FEATURES OF ORGANIZING INDEPENDENT WORK IN HIGHER MATHEMATICS FOR STUDENTS OF NON-SPECIAL EDUCATION.

Pardaboyeva S.I (student of Jizzakh State Pedagogical Universitet)

Abstract. In the country, from the 2020-2021 academic year, the introduction of a credit-modular system in higher educational institutions began. The advantage of this system is that separate hours are allocated for self-study of students, which requires them to take a serious and conscious approach to learning. It is important to organize self-study of students on the credit-modular system. The article examines the features of the organization of independent work in higher mathematics of humanities students of pedagogical universities in the credit-modular system.

Key words: credit - modular system, independent work, mathematical apparatus, mathematical culture.

Matematik ta'lim insoniyat madaniyatining bir qismidir. Xozirgi zamonda erkin, mustaqil intellektual faoliyat olib borish uchun zarur bilimlarga ega bo'lish lozim. Matematik bilimlar abstrakt tafakkurni shakllantirish va takomillashtirish bazasining ajralmas qismidir. Bundan tashqari, matematika boshqa fanlarni o'zlashtirishga tayyorlikni ta'minlovchi mustaqil ta'lim imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi omildir.

Jamiyatning yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlashga qo'yadigan zamonaviy ijtimoiy talablari oliy ta'li muassasları oldiga har tomonlama rivojlangan, yangi faoliyat sharoitlariga moslasha oladigan, kasbiy faoliyatni davom ettirishda yuzaga keladigan muammolarga o'z vaqtida va to'g'ri yechim topa oladigan shaxsni, ya'ni abstrakt fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'yadi.

Qator tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagogik oliy ta'lim muassasalarining tabiiy fanlar ta'lim yo'nalishi talabalari uchun matematika fani bir qator muammolarni

keltirib chiqaradi va natijada o'rganish motivatsiyasini pasaytiradi. Talabalar orasida yuzaga keladigan quyidagi asosiy qiyinchiliklarni belgilash mumkin: tabiiy fanlar ta'lif yo'naliishlarining birinchi kursga qabul qilingan talabalar matematika fanini o'rganishga va o'zlashtirishga yetarlicha ko'nikmaga ega emas; hisob-kitoblarning murakkabligi va ko'p mexnat talab qilishi; yechim va olingan javobni talqin qilish; ko'pgina talabalar tomonidan matematikani o'rganish bo'lajak kasbiy faoliyati uchun foydasiz deb hisoblanishi. Vujudga kelgan qiyinchiliklarning natijasi - o'quvchilar tomonidan dars davomida yechiladigan kam sonli vazifalar va ularning yechimiga talabalarning qiziqishining pasayishi.

Keltirilgan qiyinchiliklar tabiiy fanlar ta'lif yo'naliishlari talabalariga matematika o'qitishga yangi yondoshuvlarni qidirishni nazarda tutadi.

So'nggi yillarda tabiiy fanlar ta'lif yo'naliishlari talabalari uchun matematika kursini qurishda bir nechta yondashuvlar paydo bo'ldi. Quyidagi uchta asosiy yondashuvni belgilash mumkin:

- muhandislik va texnik mutaxassisliklar uchun belgilangan matematika bo'yicha dasturlarni tabiiy fanlar ta'lif yo'naliishlari talabalari uchun moslashtirish (asosan, o'quv jarayonining xususiyatlarini hisobga olmasdan dars hajmini qisqartirish);
- dars mazmunini ilmiy-ommabop matnlar bilan almashtirish;
- matematikaning bir nechta bo'limlarini yagona metodik tamoyil asosida va tabiiy fanlar ta'lif yo'naliishlari talabalariga yo'naltirilgan holda o'qitish.

Oxirgi yondoshuv samaraliroq va istiqbolli, chunki aynan shu yondoshuvda matematik bo'limgan ta'lif yo'naliishlarida matematika o'qitish xususiyatlarini hisobga olish imkonи ko'proq.

Tadqiqotchilar: Bordachenko S.I., Vasekin C.B., Voronov M.V., Мещегуакова Г.П., Dmitrieva M.N va boshqalar ta'kidlaganidek, sanab o'tilgan muammolar, asosan, materialni norasmiy idrok etish, sabab-natija munosabatlarini tahlil qilishda

qiyinchiliklar paydo bo'lishida ifodalangan tabiiy fanlar talabalarning individual - psixologik xususiyatlariga bog'liq.

Respublikamizda 2020 – 2021 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lif muassasalarida kredit – modultizimi joriy etilishi boshlandi. Ushbu tizimning afzalligi shunda ki talabalarning mustaqil ta'lifiga aloxida soatlar ajratilgan bo'lib, ulardan ta'lif olishga jiddiy va ongli yondoshishni talab etadi. Kredit - modultizimida talabalarning mustaqil ta'lifini tashkil etish muxim ahamiyatga ega.

Kredit - modul tizimi – o'quv jarayonini tartibga solish va kreditlar ko'rinishidagi bilimlar hajmini hisobga olish doirasida ta'lifning traektoriyasini tanlab olish, individuallashtirish asosida mustaqil ta'lif va bilimlarni ijodiy o'zlashtirish darajasini oshiradigan ta'lif texnologiyasidir. Bu o'quv jarayoniga nisbatan moslashuvchan bo'lishga imkon beradi, talaba mustaqil o'rganish uchun ko'proq o'quv kurslarini tanlashi mumkin.

Ta'limda kredit - modul tizimini joriy etish samaradorligi va sifatini ta'minlash uchun kredit texnologiyasi, standartlari, o'quv dasturlari, lavozim ta'riflari, o'quv kurslari mazmunini tanlash tamoyillari, o'qitish tamoyillari va uslublari, talabalarning mustaqil ishlari tashkil etish usullarini ishlab chiqish zarur. Kredit- modulta'lif texnologiyasining asosiy vazifalaridan biri bu talabalarning mustaqil ishi rolini oshirishdir.

Kredit - modul tizimini oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga joriy etishdan maqsad:

- mahalliy ta'lif tizimini xalqaro ta'lif maydoniga integratsiyalash;
- o'quv jarayoni sub'ektlarining akademik mobiligini ta'minlash.

Talabalarning mustaqil ishi - bu ta'lif sifatini oshirish va kelajakdagi mutaxassislarni tayyorlashning asosiy zaxiralaridan biridir. Kredit - modulta'lif tizimiga ko'ra, talabalarning mustaqil ishi kursning teng yarmini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan, kredit- modulta'lif tizimini joriy etish sharoitida talabalarning mustaqil ishlarini to'g'ri va samarali tashkil etish muammosi juda dolzarbdir. Shunday qilib, oliy o'quv yurtlarida kredit- modulta'lif tizimini joriy etish o'quv jarayonini

tashkil etishni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi, talabalarning mustaqil ishini samarali tashkil etishga imkon beradi.

Talabalarning mustaqil ishi deganda - o'quv, uslubiy adabiyotlar va tavsiyalar bilan ta'minlangan, testlar, kollokviyalar, referatlar, nazorat ishlari ko'rinishida nazorat qilinadigan mustaqil o'rganish uchun ajratilgan mavzular ustida mustaqil ish tushuniladi. Talabalarning mustaqil ishining to'liq hajmi talabidan har kuni mustaqil ishslashni talab qiladigan topshiriqlar bilan tasdiqlanishi kerak. Talabalarning o'qituvchi raxbarligida mustaqil ishi soatlari o'quv dasturining eng murakkab masalalari, uy vazifasi, ma'ruzalar va boshqa mustaqil ish topshiriqlari bo'yicha konsultatsiyalarni o'z ichiga oladi. Talabalarning mustaqil ishi mazmuni, albatta, ishchi dastur (silabus) va fan dasturida aks etadi.

Talabalarning mustaqil ishi - o'qituvchilarning bevosita ishtirokisiz talabaning yangi bilim va ko'nikmalarni faol, maqsadga muvofiq egallash usuli.

Tabiiy fanlar ta'lim yo'nalishi talabalarining matematika bo'yicha mustaqil ishini tashkil etishda ularning individual – psixologik xususiyatlaridan kelib chiqish axamiyatlidir. Ushbu jarayonni tashkil etish uchun uslubiy qo'llanmani ishlab chiqish bugungi kunda pedagogik OTM lar oldida turgan dolzarb masalalardan biri. Bunday qo'llanma matematika fanining mantig'ini buzmagan xolda kursning muxim qsimlarini ajratishga imkon beradi.

Kredit – modultizimida tabiiy fanlar ta'lim yo'nalishi talabalarning mustaqil ishini tashkil etish uchun uslubiy qo'llanmani "Mustaqil ish daftari" ko'rinishida ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman. "Mustaqil ish daftari" ning asosiy qismi talaba tomonidan mustaqil ravishda to'ldiriladi, ya'ni mavzular bo'yicha belgilangan nazariy savollar va amaliy topshiriqlarni mustaqil bajaradi.

Mustaqil ishni bajarishda quyidagi qoidalarga qat'iy rioya qilinishi lozim.

1. Mustaqil ish topshiriqlarni tanlash talabaning gurux jurnalidagi tartib raqami bo'yicha amalga oshiriladi;
2. Agar bir nechta vazifalar umumi shartga ega bo'lsa, unda masalani yechishda umumi shartlar tegishli ma'lumotlar bilan almashtiriladi;

3. Topshiriqlarni bajarishdan avval materialni o'rganish va uslubiy ko'rsatmalar bilan tanishish kerak. Masalalar yechimlari batafsil, bajarilgan qadamlar ketma – ketligi aniq ko'rsatilgan xolda qayd etilishi kerak.

4. Tekshirilgan ishni olgandan so'ng talaba t'uyutor tomonidan qayd etilgan xato va kamchiliklarni tuzatishi shart. Xatolar ustida ishslash xam "Mustaqil ish daftari" da bajariladi va qayta topshiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Воронов М.В., Мещерякова Г.П. Математика для студентов гуманитарных факультетов / Серия «Учебники, учебные пособия» Ростов н/Д: Феникс, 2002.
2. Гаваза Т.А. Профессионально-педагогическая направленность курса математики для естественных факультетов педвузов: Дис. канд. пед. наук. Орел, 2003.
3. Захожая Т.М. Самостоятельная работа студентов в условиях организации учебного процесса в системе кредитно – зачетных единиц// успехи современного естествоznания. – 2008. - №7 – С. 112 – 113.
4. Эрназарова Н.Х Формирование познавательного интереса к математическому образованию студентов гуманитарных факультетов// Научный вестник СамГУ №2- 2020
5. Эрназарова Н.Х Methods of intensification of teaching mathematics of humanitarian students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 8 No. 3, 2020 Part II ISSN 2056-5852